

O'ZBEK MILLIY ESTRADA SAN'ATIGA ULKAN HISSA QO'SHGAN O'ZBEKISTON XALQ ARTISTI BOTIR ZOKIROV IJODIGA BIR NAZAR

Shomuradov Anvar Islomovich

Termiz ixtisoslashtirilgan san'at maktabi o'qituvchisi

Anik.pyanik@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O'zbek milliy estrada san'atiga ulkan hissa qo'shgan o'zbekiston xalq artisti botir zokirov ijodiga bir nazar” mavzusi asosida Botir Zokirovning xotirasini abadiylashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar hamda qabul qilinayotgan qarorlar to'g'risida.

Kalit so'zlar: Musiqa, san'at, milliy estrada, artist, xonanda, rassom, san'atkor, kompozitor, bastakor, asar, kuy, qo'shiq, dirijyorlik, cholg'u ijrochiligi, texnogen.

Аннотация. В данной статье на тему «Взгляд на творчество народного артиста Узбекистана Ботира Закирова, внесшего большой вклад в узбекское национальное эстрадное искусство» проводятся работы и решения по увековечиванию памяти Ботира Закиров.

Ключевые слова: Музыка, искусство, народная эстрада, артист, певец, живописец, артист, композитор, композитор, произведение, напев, песня, дирижер, инструментальное исполнительство, техноген.

Abstract. In this article, based on the theme "A look at the work of the People's Artist of Uzbekistan, Botir Zakirov, who made a great contribution to the Uzbek national pop art", the works and decisions are being made to perpetuate the memory of Botir Zakirov.

Key words: Music, art, national pop, artist, singer, painter, artist, composer, composer, work, tune, song, conductor, instrument performance, technogen.

O'zbekistonga estrada san'atining kirib kelishida va uning rivojida milliy estrada san'atimiz asoschisi, o'z san'ati va ijtimoiy faoliyati bilan xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shgan buyuk san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirovning xizmatlari beqiyosdir.

Botir Zokirov ijodiy merosining yosh avlodni vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadryatlar ruhida tarbiyalash borasidagi ulkan ahamiyatini inobatga olib tavalludining 85 yilligini keng nishonlash va xotirasini abadiylashtirish maqsadida juda ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, "O'zbekkino" Milliy agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Badiiy akademiya, Yoshlar ishlari agentligi hamda jamoatchilik vakillarining 2021-yilda O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi taklifi va tadbirni nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan maqullandi hamda tasdiqlandi.

Bundan tashqari Toshkent shahrida O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov nomidagi milliy estrada oliy maktabi tashkil etish, u yerda xonanda xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmuasini va muzeyini barpo etish, Badiiy akademiya tomonidan Botir Zokirov haykalini yaratish bo'yicha tanlov e'lon qilish va uni Toshkent shahrida belgilangan tartibda o'rnatish, xonanda yashagan Toshkent shahri, Shayxotohur tumani, Navoiy ko'chasi 3-uyga yodgorlik lavhasi o'rnatish, Botir Zokirov tahsil olgan O'zbekiston davlat konservatoriyasi joylashgan ko'chaga Botir Zokirov nomini berish, O'zbekiston davlat filarmoniyasining Milliy estrada-simfonik orkestri bilan Botir Zokirov nomidagi estrada orkestrini birlashtirib, Botir Zokirov nomidagi milliy estrada-simfonik orkestrini tashkil etish, Botir Zokirov nomidagi jamoat fondi faoliyatini qo'llab quvvatlash, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi hamda Yozuvchilar

uyushmasi ishtirokida “Botir Zokirov zamondoshlari xotirasida” nomli kitobni nashrga tayyorlash va chop etish, Botir Zokirov ijodiga mansub tasviriy san’at namunalari hamda adabiy asarlardan iborat kitob-albomni o’zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etish, Botir Zokirov nomidagi zamonaviy estrada qo’shiqchilari tanlovini yuqori saviyada o’tkazish, Botir Zokirovning hayoti va ijodiy faoliyati haqida yangi hujjatli film yaratish, Respublika teatrlarida Botir Zokirov hayoti va faoliyatiga bag’ishlangan spektakllar sahnalashtirish, O’zbekiston davlat konservatoriyasida “Botir Zokirov ijodiy merosining milliy san’atimiz taraqqiyotidagi o’rni va ahamiyati” mavzusida ilmiy konferensiya o’tkazish va anjuman materiallarini to’plam holida chop etish kabi ko’plab takliflar prezidentimiz tomonidan maqullandi.¹

Albatta milliy estradamizni rivojlanishida ulkan ishlarni amalga oshirgan O’zbekiston xalq artisti Botir Zokirovning yorqin xotirasi uchun amalga oshirilgan ishlar ham ulkandir. O’zbekiston Respublikasi prezidentining 2020-yil 2-dekabrda, “O’zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to’g’risida”gi PQ-4908-son qaroriga muvofiq O’zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati institutini tashkil etilishi to’g’risidagi bandi esa xonandaning nomini abadiylashtirishga va milliy estradamizning samarali rivojiga o’z hissasini qo’shadi.

Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati instituti faoliyati bilan bog’liq quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

- Milliy estrada yo’nalishi bo’yicha malakali mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ularning ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug’ullanishlari uchun keng imkoniyalar yaratish;

¹ O’zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to’g’risida O’zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. Toshkent shahri 2020-yil, 2-dekabr.

- Milliy estrada yo'nalishida o'quv-metodik adabiyotlar yaratish, atoqli kompozitor va bastakorlar, xonanda va sozandalar ijodini chuqur o'rganish, shuningdek, milliy estrada ijrochiligi namunalarini notaga ko'chirish;

- Milliy estrada yo'nalishi bo'yicha fundamental, amaliy va ijodiy izlanish hamda tadqiqotlar olib boorish, sohada shakllangan ijodiy maktablarning o'ziga xos ijro uslublari va an'alarini qayta tiklash va rivojlantirish;

- milliy estradaning zamonaviy ijro uslublari namunalarini notaga olish va amaliyotga keng joriy etish, milliy estradaning ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarini olimlar va ijrochi mutaxassislar ishtirokida chuqur o'rganish;

- milliy estradani yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish;

- milliy estrada yo'nalishida zamonaviy ijro namunalarining "Oltin fondi"ni yaratish;

- xalqimiz, xususan, yosh avlod ongida milliy estrada orqali milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish;

- estrada yo'nalishlarida xorijiy ta'lim muassasalari va tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'zaro tajriba almashish, qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5261-son qaroriga 1-ilova sifatida 2021-2022-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat konservatoriyasidan O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutiga o'tkaziladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistrature mutaxassisliklari ro'yxati tasdiqlandi. Bularga quyidagi ta'lim yo'nalishlari kiradi:

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari

- Professional ta'lim: vokal san'ati (estrada xonandaligi)

- Professional ta'lim: cholg'u ijrochiligi (estrada cholg'ulari)

- Dirijyorlik: estrada orkestri dirijyorligi
- Vokal san'ati: estrada xonandaligi
- Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari
- Texnogen san'at: musiqiy ovoz rejissorligi

Magistratura mutaxassisliklari:

- Vokal san'ati: estrada xonandaligi
- Cholg'u ijrochiligi: estrada cholg'ulari

2022-2023-o'quv yilidan boshlab esa ushbu ta'lim yo'nalishlariga bastakorlik san'ati, san'atshunoslik: musiqashunoslik, ovoz rejissorligi: musiqiy ovoz rejissorligi, musiqa san'ati kabi yo'nalishlar qo'shiladi va qabul amalga oshirilishi rejalashtirilgan.²

Xulosa qilib aytganda, betakror ijod, ovoz sohibi Botir Zokirov milliy estrada san'atida o'zidan o'chmas iz qoldirgan, yurt taqdiri uchun qayg'urgan ulug' san'atkorlardan biridir. Albatta, bugungi zamon o'zbek yoshlari, ustozlarning samimiyatidan, maxoratidan ibrat olib, o'z iste'dodlarini namoyon qilishlari zamirida ulkan ma'no va kelajak mujassamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. Toshkent shahri 2020-yil, 2-dekabr.
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5261-son qarori. Toshkent 2021-yil, 16-oktyabr.
- 3 Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12 (80), 83-87.
- 4 URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657401>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5261-son qarori. Toshkent 2021-yil, 16-oktyabr.

-
- 5 Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.
 - 6 Choriyev, B. (2021). CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS.
 - 7 Choriyev, B. B. O. G. L. (2022). O'zbekistonda xalq cholg'ularining takomillashuv jarayonlari hamda ko'p ovozli orkestr va ansambllarning tashkil topishi. *Science and Education*, 3(4), 776-780.
 - 8 [URL:https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi](https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-xalq-cholg-ularining-takomillashuv-jarayonlari-hamda-ko-p-ovozli-orkestr-va-ansambllarning-tashkil-topishi).
 - 9 Choriyev, B. (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.
 - 10 URL: <https://scienceweb.uz/publication/2144>